



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL

Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

IX-25-guruh, 1-kurs magistranti

E-mail: kumushoyakhmedovna@gmail.com

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası

katta o'qituvchi, PhD

E-mail: yayrusha@tsue.uz

ORCID: [0009-0002-0826-3991](https://orcid.org/0009-0002-0826-3991)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri hamda uni barqaror boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tashqi qarzning iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi investitsion manba sifatidagi o'rni, shuningdek, qarz yukining ortishi bilan bog'liq makroiqtisodiy xatarlar yoritiladi. Xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlar va investorlar bilan shakllangan tashqi qarz tarkibi, uning YalMga nisbati hamda barqarorlik ko'rsatkichlari xalqaro me'yorlar asosida baholanadi. Olingan natijalar tashqi qarzning oqilona va samarali boshqarilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi hamda davlat qarzini boshqarish strategiyasini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, tashqi qarz, iqtisodiy xavfsizlik, qarz barqarorligi, YalM, fiskal siyosat, investitsiya loyihalari, makroiqtisodiy barqarorlik, xalqaro moliya institutlari, budjet cheklovi, qarz yukini boshqarish.

Abstract. This article analyzes the impact of public external debt on the economic security of the Republic of Uzbekistan and examines issues of its sustainable management. The study highlights the role of external debt as an investment source supporting economic growth and considers macroeconomic risks associated with an increasing debt burden. The structure of external debt formed through international financial institutions, foreign governments, and investors, its ratio to GDP, and sustainability indicators are assessed based on international standards. The results indicate that prudent and effective management of external debt is crucial for ensuring economic stability and substantiate the need to improve the public debt management strategy.

Key words: public debt, external debt, economic security, debt sustainability, GDP, fiscal policy, investment projects, macroeconomic stability, international financial institutions, budget constraint, debt burden management.

Аннотация. В статье анализируется влияние государственного внешнего долга на экономическую безопасность Республики Узбекистан, а также вопросы его устойчивого управления. В исследовании раскрывается роль внешнего долга как инвестиционного источника, поддерживающего экономический рост, и рассматриваются макроэкономические риски, связанные с увеличением долговой нагрузки. Структура внешнего долга, сформированного за счёт международных финансовых институтов, иностранных правительств и инвесторов, его соотношение с ВВП и показатели устойчивости оцениваются на основе международных стандартов. Полученные результаты показывают, что рациональное и эффективное управление внешним долгом имеет важное значение для обеспечения экономической стабильности и обосновывают необходимость совершенствования стратегии управления государственным долгом.

Ключевые слова: государственный долг, внешний долг, экономическая безопасность, долговая устойчивость, ВВП, фискальная политика, инвестиционные проекты, макроэкономическая стабильность, международные финансовые институты, бюджетное ограничение, управление долговой нагрузкой.



KIRISH

Moliyaviy munosabatlar tizimida davlat qarzi tushunchasi muhim o'rin tutadi. Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda xalqaro huquqning boshqa subyektlari oldida vujudga keladigan hukumatning qarziy majburiyatlari davlat qarzi sifatida talqin etiladi. Davlatning tashqi qarzi esa xalqaro moliyaviy bozorlar, xorijiy hukumatlar yoki xalqaro tashkilotlardan jalb etilgan moliyaviy majburiyatlar majmuini anglatadi. Bu jarayon faqat "qarz olish" bilan cheklanmay, balki iqtisodiy siyosatning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashqi qarz masalasida shaffoflik va samaradorlik talablarining yuqoriligini ta'kidlab, tashqi qarzni oqilona boshqarish zarurligini bir necha bor qayd etgan. Xususan, 2022-yil 19-fevral kuni Toshkent shahri faollari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda davlat rahbari: "Hammasi maqsadli ishlatilmoqda va o'z vaqtida qaytariladi. Tashqi qarz xalqimizning farovonligiga xizmat qilmoqda. Bizda boshqa davlatlarga nisbatan qarz yuki ancha past", shuningdek, "Biz zarur resurslarni jalb qilmaganimizda, 500 million dollarlik metro loyihalarini amalga oshira olarmidikmi?" [1], deya ta'kidlab, tashqi qarzni xavf manbai emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida ko'rishga qaratilgan davlat siyosatini ifodalagan.

Tashqi qarz rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim investitsion salohiyatni ochib beruvchi moliyaviy manba hisoblanadi. Uning iqtisodiyotdagi asosiy vazifasi moliyaviy ehtiyojlarni qondirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Xususan, budget mablag'lari yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli bo'lmagan sharoitda, qarz resurslari investitsiyalarni moliyalashtirish vazifasini bajaradi. Bu, o'z navbatida, infratuzilmani (yo'llar, energetika tizimlari, portlar) rivojlantirish hamda ijtimoiy dasturlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash) amalga oshirishga imkon yaratib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Shuningdek, tashqi qarz moliyaviy bo'shliqni qoplashda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni milliy jamg'armalar bilan zarur ichki investitsiyalar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi va rejalashtirilgan loyihalarning o'z vaqtida boshlanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tashqi qarz iqtisodiy rivojlanish uchun samarali katalizator bo'lishi uchun uni puxta va mas'uliyat bilan boshqarish zarur. Qarzni boshqarishdagi kamchiliklar uzoq muddatli makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, agar jalb etilgan mablag'lar yetarli iqtisodiy samara bermaydigan loyihalarga yo'naltirilsa, kelgusida qarzni qaytarish va foiz to'lovlari davlat budjeti yukini oshirishi ehtimoli yuzaga keladi. Bundan tashqari, tashqi qarzning yalpi ichki mahsulotga (YalIM) nisbatan haddan tashqari yuqori darajaga chiqishi makroiqtisodiy barqarorlikka bosim o'tkazishi, xorijiy investorlar ishonchiga ta'sir etishi va milliy valyuta kursi barqarorligiga xavf tug'dirishi mumkin.

O'zbekistonning tashqi qarzi so'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlarini moliyalashtirish jarayonida muhim manba sifatida faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, qarz hajmi va uni qaytarish mexanizmlarini samarali tashkil etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston tashqi qarzining iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini baholash hamda uni boshqarishning optimal strategiyalarini ishlab chiqish mazkur maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy asosini A. Shernayev va O. Kamolovning (2019-yil), shuningdek, J. Ataniyazov va hammualliflarning (2019-yil) davlat qarzini boshqarishga doir darsliklari tashkil etadi. Ushbu manbalarda qarz barqarorligini ta'minlash mexanizmlari tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha O'zbekiston va xorijiy olimlarning tashqi qarzning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siriga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari ham keng qamrovda o'rganildi. Jumladan, V. L. Kuznetsov [2], L. A. Alisxanova [3], M. U. Ismoilov [4], P. Djurayev [5], I. Z. Eshonqulov [6], Sh. I. Omonova va Y. A. Tashmuxamedovanning [7] ilmiy maqolalari tahlil qilindi.

Shuningdek, International Monetary Fund (IMF) tomonidan e'lon qilingan "Republic of Uzbekistan: Debt Sustainability Analysis" hamda "Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation" hisobotlari, O'zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlari, "Budgetnoma 2025–2027" va "Fuqarolar uchun budget" (2025-yil) nashrlari asosida tashqi qarz dinamikasi va uning asosiy ko'rsatkichlari o'rganildi. Bundan tashqari, soha bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy jurnallar va ommaviy axborot manbalari materiallari tahlil qilinib, ularning natijalari tadqiqotning empirik va nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tashqi qarzning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri hamda qarz barqarorligini baholash uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llaniladi. Tashqi qarz, qarz barqarorligi ko'rsatkichlari va iqtisodiy xavfsizlik elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar yagona tizim sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning tashqi qarz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki tomonidan belgilangan xalqaro me'yoriy (benchmark) chegaralar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.




Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash, dinamik qatorlarni o'rganish hamda nisbiy ko'rsatkichlar usullaridan foydalaniladi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tashqi qarzni hajmi, tuzilmasi va uning YaIMga nisbati baholanib, ularning vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida tashqi qarzni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat qarzi barqarorligini baholash va tahlil qilish iqtisodiy siyosatning muhim va mas'uliyatli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tahlilning markazida hukumatning joriy va kelajakdagi fiskal majburiyatlarini iqtisodiyotga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadigan keskin fiskal tuzatishlar (masalan, soliq stavkalarini keskin oshirish yoki xarajatlarni qisqartirish) talab etilmasdan turib bajarish qobiliyatini aniqlash masalasi turadi.

Davlat qarzini boshqarishda makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi xatarlarning oldini olish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, davlat tomonidan jalb qilinayotgan mablag'lar hajmini oqilona rejalashtirish, shuningdek, jalb etilgan resurslardan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan tizimli nazoratni kuchaytirish orqali ta'minlanadi [8].

O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, davlat qarzi "davlat tomonidan ichki va tashqi manbalardan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi" sifatida ta'riflanadi. Ushbu huquqiy ta'rif davlat qarzini boshqarish va uning barqarorligini ta'minlash bo'yicha institutsional yondashuvning muhim asosini tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Joylashtirilish joyiga qarab davlat qarzlarini ikki turga bo'linadi [9].


Davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag'larni jalb etishni anglatadi. Ushbu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatida yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlari (qarzlar) bo'yicha kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga keladi.

Tashqi qarz davlat tashqi qarzi va xususiy sektor tashqi qarzigacha bo'linadi. Davlat tashqi qarzi hukumat tomonidan jalb qilingan yoki uning kafolati ostida olingan tashqi majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Xususiy sektor tashqi qarzi esa davlat majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan tashqi qarzlardan iborat bo'ladi.

Mamlakatning umumiy tashqi qarzi mahalliy iqtisodiyotning xorijiy subyektlar (xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqalar) oldidagi amaldagi, ya'ni hali to'lovlari amalga oshirilmagan hamda kelgusida belgilangan muddatlarda qaytarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarini aks ettiradi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish chet el manbalaridan, jumladan, chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro moliya institutlari va boshqa norezident subyektlardan resurslar jalb etishni nazarda tutadi. Ushbu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlari (qarzlar) bo'yicha kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi [10].


Ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega (2-rasm).



2-rasm. Davlat qarzining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri [9].



Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisobotga ko'ra, 2024-yil holatiga davlat qarzi 40,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Shundan tashqi qarz hajmi 33,7 mlrd AQSh dollariga yetgan. Jalb qilingan xorijiy kreditlarning 17,9 mlrd AQSh dollari qat'iy belgilangan foiz stavkalarida, 15,64 mlrd AQSh dollari esa o'zgaruvchan foiz stavkalarida rasmiylashtirilgan [11] (3-rasm).




3-rasm. Davlat tashqi va ichki qarzlar 2023–2025-yillar kesimida (mlrd AQSh dollari) [11].

Davlat tashqi qarzi uch yo'nalishdagi kreditorlar hisobidan shakllanmoqda. Jumladan, mamlakat tashqi kreditlarining 54 foizi xalqaro moliya institutlari (XMI) hissasiga, 30 foizi xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari hissasiga, qolgan 16 foizi esa xalqaro investorlar hissasiga to'g'ri keladi.

2025-yil 3-chorak yakunlariga ko'ra, respublikaga eng ko'p kredit ajratgan oltita asosiy kreditorni ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston tomonidan qaytarilishi lozim bo'lgan eng yirik kredit Jahon banki tomonidan ajratilgan bo'lib, u 8 022 mln AQSh dollarini tashkil etadi va bu ko'rsatkich jami tashqi qarzning qariyb 22 foiziga teng.

Ikkinchi yirik kreditor — Osiyo taraqqiyot banki bo'lib, u tomonidan ajratilgan kredit hajmi 7 497 mln AQSh dollarini tashkil etadi. Uchinchi yirik manba sifatida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ajralib turadi, ushbu institutdan jalb qilingan qarz hajmi 1 733 mln AQSh dollariga teng.

Keyingi yirik kreditorlar qatoriga Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kiradi. Ushbu manbalardan jalb qilingan kreditlar qoldig'i jami 2 594 mln AQSh dollarini tashkil etib, bu umumiy tashqi qarzning taxminan 8 foiziga to'g'ri keladi [12]. Qolgan kreditlar esa ko'plab boshqa moliya institutlari va davlatlarning moliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi (4-rasm).




4-rasm. O'zbekistonga eng ko'p kredit bergan moliya institutlari va tashkilotlar (mlrd AQSh dollari) [13].



Davlat qarzi barqarorligini baholash va tahlil qilishning fundamental nazariy asosi hukumatning budget cheklovi (Government Budget Constraint) tushunchasiga borib taqaladi. Barqarorlik, asosan, davlatning kelajakda kutilayotgan birlamchi profitsitlari (soliq tushumlari minus foiz to'lovlarisiz joriy xarajatlar) joriy qarzning sof qiymatiga teng bo'lishi lozimligi haqidagi shartni anglatadi. Agar birlamchi profitsitlar qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'lmasa, davlat YalMga nisbatan qarz nisbatining oshib ketishini cheklash maqsadida qarzni monetizatsiya qilish (Markaziy bank orqali) yoki boshqa muqobil fiskal choralarni qo'llash zarurati bilan yuzma-yuz keladi.

Davlat qarzi barqarorligini baholashda bir nechta muhim ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Biroq ular orasida eng keng tarqalgan va asosiy ko'rsatkich davlat qarzining YalMga nisbati (Qarz/YalM) hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiyotning qarzni to'lash salohiyatini umumiy baholash imkonini beradi. Agar mazkur nisbat haddan tashqari yuqori darajaga yetadigan bo'lsa, qarz barqarorligi bilan bog'liq xatarlar kuchayishi mumkin. Amaliy tajribaga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu ko'rsatkichning 40–50 foiz darajadan oshmasligi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. Davlat tashqi qarzining YalMga nisbati 2023–2025-yillar oralig'ida (3-chorak kesimida, mlrd AQSh dollari) [12].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2025-yil 3-chorak holatiga davlatning tashqi qarzi 36 721 mln AQSh dollarini, YalM esa 9 914,67 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Tashqi qarz davlatning jami qarzining 84 foizini, YalMga nisbatan esa 27 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston davlat qarzi 2025-yil yakunida 45,1 mlrd AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich yil yakunida kutilayotgan yalpi ichki mahsulot (125 mlrd AQSh dollari)ga nisbatan 36,7 foizga teng bo'lishini anglatadi. Joriy yilda 5,5 mlrd AQSh dollari miqdorida tashqi qarz jalb etilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 3 mlrd AQSh dollari budjetni qo'llab-quvvatlashga, qolgan 2,5 mlrd AQSh dollari esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan [14].

2026-yil uchun mamlakat yalpi ichki mahsulotining 140 mlrd AQSh dollaridan ortishi prognoz qilinmoqda. Dastlabki baholashlarga ko'ra, makroiqtisodiy va fiskal ko'rsatkichlar barqarorligi ta'minlangan sharoitda davlat qarzining YalMga nisbati kelgusi yilda 37,9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu esa davlat qarzi hajmining 53 mlrd AQSh dollaridan ortishini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston misolida tashqi qarzning o'sishi dastlabki bosqichlarda infratuzilmani rivojlantirish, energetika va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish kabi strategik loyihalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini yaratadi. Shuningdek, ushbu mablag'lar aholi turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tashqi qarz



hajmining ortishi ayrim holatlarda iqtisodiy xavfsizlikka bosim ko'rsatishi mumkin. Xususan, bunday jarayonlar kuchaygan taqdirda, davlatning moliyaviy qaramligi oshishi, inflyatsion bosim kuchayishi hamda milliy valyuta barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuzaga keladi.

Mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida tashqi qarzni boshqarishning puxta va izchil strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, fiskal va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish zarur. Jumladan, qarz hajmi va uni qaytarish bo'yicha aniq dasturlarni ishlab chiqish, qarz portfelining muddat va foiz stavkalari bo'yicha muvozanatini ta'minlash hamda ijtimoiy sohalarga yo'naltiriladigan xarajatlarning barqarorligini saqlash ushbu strategiyaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi qarz davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, uning hajmi va boshqarilishi tizimli ravishda nazorat qilinishi lozim. Tashqi qarzni oqilona boshqarish, uni jalb qilish va qaytarish bo'yicha aniq strategiyalarni amalga oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kun.uz. (n.d.). <https://kun.uz/en/50304270>
2. Кузнецов, В. Л. (2020). Государственный внешний долг и экономическая безопасность страны: диссертация. Москва.
3. Алисханова, Л. А. (2021). Управление государственным долгом в условиях внешних шоков. ВАК РФ.
4. Scientific Journal. (n.d.). <https://scientific-jl.com/yan/article/view/14718>
5. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyoti jurnali. (n.d.). <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5237>
6. Phoenix Publication. (n.d.). <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/3633>
7. Ташмухамедова, Я. А. (2025). Влияние социально-демографических факторов на обеспечение экономической безопасности страны. Innovation Science and Technology, 1(10), 47–51.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2023-yil 29.04). O'RQ-836-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6446817>
9. Shernaev, A., & Kamolov, O. (n.d.). Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (n.d.). Umumiy jadval. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (n.d.). Kreditorlar. <https://www.imv.uz/static/kreditorlar>
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida. (n.d.).
13. Fuqarolar uchun budget. (2025-yil). Loyiha, 59-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
